

**O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining 2025 yil 1-chorak
yakunlari bo‘yicha korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib chiqish
natijalari haqidagi oraliq
HISOBOT**

Milliy qonunchilik talablari va O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining ichki tartib-qoidalariga amal qilgan holda 2024 yil dekabr oyidan boshlab Vazirlik markaziy apparati va bo‘ysunuvdagi tashkilotlarida korrupsiyaviy holatlar haqida ma‘lumot berish uchun jismoniy va yuridik shaxslar uchun alohida aloqa kanallari yaratildi. Mazkur kanallar haqidagi ma‘lumotlar tashkilotlarning rasmiy veb-saytiga joylashtirildi va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanallar orqali ham tarqatildi.

2025 yil 1-chorak yakunlari bo‘yicha, yaratilgan aloqa kanallari Vazirlik mas‘ul bo‘linmasiga markaziy apparatda yoki bo‘ysunuvdagi tashkilotlarda mansabdor shaxs vazifalarini bajarib kelayotgan diplomatik xizmat xodimlari ishtirokidagi korrupsiyaviy holatlar yoki shunga oid huquqiy qonunbuzarliklar to‘g‘risida murojaatlar kelib tushmadi.

Shunga qaramasdan, Vazirlik tomonidan mazkur yo‘nalishdagi maqsadli choralar ko‘rilishi davom etadi. Xususan, Vazirlik mas‘ul bo‘linmalari tomonidan tashkilot tizimida hozirgi kunda mehnat qilayotgan barcha xodimlar va ishga yangi qabul qilinayotgan mutaxassislarga korrupsiyaviy holatlarga qarshi kurashishning ustuvor vazifalari va bu borada davlat xizmatchilarining zimmasiga yuklatilayotgan qo‘shimcha majburiyatlar, shuningdek ulardan kelib chiqadigan javobgarlik to‘g‘risida tushuntirish va maslahatlar berib boriladi.

**O‘zbekiston Respublikasi
Tashqi ishlar vazirligining
Komplaens nazorati xizmati**